

PROKURATURA ORGANLARINI TASHKIL ETISH VA ULAR FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI

Mamirova Xumora Rahimberdi qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: xumoramamirova1@gmail.com

Matmurotov Alibek Ravilovich,

Toshkent davlat yuridik universitetining

Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura

kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

(PHD), ilmiy maslahatchisi

E-mail: alibekmatmurotov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Prokuratura organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilovchi prinsiplar ularning butun tizimi va vakolatlarini samarali amalga oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada prokuratura faoliyatini tartibga soluvchi asosiy prinsiplar, xususan birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik, oshkoraliq prinsiplari chuqur tahlil qilingan. Har bir prinsipning mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi ifodalanish shakllari tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada prinsiplar tizimining huquqiy mexanizmlardagi aks etishi va uni takomillashtirish istiqbollari yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar va takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura, prokuratura organlari faoliyati, prinsip, birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik, oshkoraliq, hududiylik, predmetlilik, hududiy-predmetlilik.

THE ORGANIZATION OF PROSECUTORIAL BODIES AND THE FUNDAMENTAL PRINCIPLES OF THEIR ACTIVITY

Mamirova Khumora Rakhimberdi qizi

Tashkent State University of Law,

3rd-year student, Faculty of Criminal Justice

E-mail: xumoramamirova1@gmail.com

Matmurotov Alibek Ravilovich,

Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Law,

Acting Associate Professor of the Department of Court, Law Enforcement Agencies, and Advocacy, PhD, Scientific Adviser

ANNOTATION

The principles defining the constitutional and legal foundations of the activities of prosecutorial bodies play an important theoretical and practical role in ensuring the effective implementation of their entire system and powers. This article provides an in-depth analysis of the fundamental principles regulating the activities of the prosecutor's office, in particular the principles of unity, centralization, legality, independence, and transparency. The essence and content of each principle, their interrelation, and the forms of their expression in the current normative-legal documents are examined through an analytical approach. Additionally, the article presents relevant scientific conclusions and proposals regarding the reflection of the system of principles in legal mechanisms and prospects for its improvement.

Keywords: prosecutor's office, activities of prosecutorial bodies, principle, unity, centralization, legality, independence, transparency, territoriality, subject-matter orientation, territorial-subject orientation.

ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ

Мамирова Хумора Рахимберди кизи

Ташкентский государственный юридический университет,

студентка 3 курса факультета уголовного правосудия

E-mail: xumoramamirova1@gmail.com

Матмуротов, Алибек Равилович,

Исполняющий обязанности доцента кафедры суда, правоохранительных органов и адвокатуры Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам, научный руководитель

E-mail: alibekmatmurotov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Принципы, определяющие конституционно-правовые основы деятельности органов прокуратуры, имеют важное теоретическое и практическое значение для эффективной реализации всей системы и полномочий этих органов. В данной статье всесторонне проанализированы основные принципы, регулирующие деятельность прокуратуры, в частности, принципы единства, централизации, законности, независимости и гласности. Содержание и сущность каждого принципа, их взаимосвязь и формы

выражения в действующих нормативно-правовых актах раскрыты на основе аналитического подхода. Наряду с этим, в статье представлены соответствующие научные выводы и предложения по отражению системы принципов в правовых механизмах и перспективам их совершенствования.

Ключевые слова: прокуратура, деятельность органов прокуратуры, принцип, единство, централизация, законность, независимость, гласность, территориальность, предметность, территориально-предметный подход.

KIRISH

Bugungi rivojlangan mamlakatimizda huquq tizimida amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy maqsadi fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va huquqiy nazoratni amalga oshirishdir. Zamonaviy huquq tizimi hisoblangan prokuratura organlarining tashkil etilishi va ularning faoliyati murakkab masala hisoblanadi. Sababi, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida prokuratura organlarining vazifalari faqatgina jinoyatlarni tergov qilish va ularni sudga taqdim qilish emas, balki qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada qiyosiy-huquqiy manbalarni tadqiq etish, milliy va xorijiy qonunchilikni tahlil qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo‘llash amaliyotini o‘rganish kabi usullardan fondalanilgan. Shuningdek Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari oid Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Gruziya davlatlarining qonunchilik tajribalari o‘rganib chiqilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ilmiy-nazariy adabiyotlarga nazar tashlar ekanmiz, prokuratura organlari faoliyatini tashkil etishda asosan “ishni tashkil etish” va “boshqaruv” masalalariga alohida e’tibor berilgan va hozirda ushbu tushunchalar prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish tushunchasi bilan bir xilda qo‘llaniladi.

“Prokuror” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “Pro-Suro” degan ma’noni ya’ni o‘zbek tilida “g‘amxo‘rlik qilmoq”, “asrab avaylamoq”, “ta’minlamoq”, “boshqarmoq” yoxud “boshlab bormoq” degan ma’nolarni bildiradi [1].

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng prokuratura organlari faoliyatini tashkil qilishda samarali harakatlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1992-yil 8-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prokuratura organlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni va

shu yilning 24-yanvarida “O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. 1992-yil 9-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi va “SSSR Prokuratura to‘g‘risida” gi Qonunning yurtimizda amal qilishiga chek qo‘yildi.

Fikrimizcha, prokuratura organlarining eng katta qadami 1992-yil 8-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prokuratura organlari to‘g‘risida” Prezidentimiz Farmoni bilan qo‘yilgan. Prokuror nazorati tarmog‘ining alohida dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning 2-chaqiriq oltinchi sessiyasidagi **“Adolat-qonun ustuvorligida”** ma’ruzasi bo‘yicha qabul qilingan Oliy Majlisning 2001-yil 29-avgustdagи qarorida ifodalangan. Unga ko‘ra, prokuratura, huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar, sudlar faoliyati, jinoiy jazolarni liberallashtirish, qonun ustuvorligini ta’minalash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarni hayotda amalga oshirish bo‘yicha talablar qo‘yildi [2].

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning eng markazida turuvchi prokuratura organlarining asosiy vazifasi qonunlarning aniq va bir xilda amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hisoblanadi. Aynan davlatning ichki tartibini saqlash va jamiyatdagiadolatni ta’minalashda mazkur organning nazorati katta ahamiyat kasb etadi. Prokuraturaning tizimli va samarali faoliyat yuritishi davlatning jamiyatda tartibni saqlash, davlatning huquqiy tizimi to‘liq ishlashi, jinoyatcxilikka qarshi kurashni yoxud ijtimoiy muvozanatni ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etadi, nazarimizda.

Prinsiplar muayyan jamiyatdagi shaxslarning xulq-atvorini belgilovchi axloqiy normalar hisoblanadi. Ularga rioya qilinishi qonunda belgilab qo‘yilgan bo‘ladi va ularga rioya qilmaslik holatlari kuzatiladigan bo‘lsa huquqiy oqibatlar kelib chiqish holatlari vujudga keladi. **“Prinsip”** so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib “principium” ya’ni qoida, asos, rahbariy qoidalari, yo‘l-yo‘riqlar degan ma’noni bildiradi [3]. Prinsiplar ma’lum bir nazariya, fan yoki siyosiy tashkilotning dastlabki boshlanish nuqtasini o‘zida ask ettiradi.

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ularning faoliyatini tizimlashtirishning muhim elementi bu prokuratura faoliyatining prinsiplari hisoblanadi.

Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Prokuratura to‘g‘risida” gi Qonunda aks ettirilgan. Yangilangan tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXV bobi Prokuratura organlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston

Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi [4] deb belgilab qo‘yilgan. Demak, prokuratura organlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashganlik tizimini tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga bo‘ysinadi hamda hisobdor bo‘ladi.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra ular quyidagilardan iborat:

- Birlik**
- Markazlashganlik**
- Qonuniylik**
- Mustaqillik**
- Oshkoraliq**

Shu bilan birga huquqni qo‘llash ichki tashkliy masalalar ham mavjud bo‘lib ular quyidagilar:

- Hududiylik**
- Predmetlilik** [5].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi prinsiplarni birma-bir tahlil qilib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Prinsiplarimiz ichidan birinchi prinsipimiz bo‘lgan “birlik” prinsipiiga to‘xtalsak. Shuni aytib o‘tishimiz joizki, “birlik” tamoyilining aniq huquqiy tushunchasi mavjud emas. Bu sababli bir nechta huquqshunos olimlarning mazkur prinsip haqidagi fikrlariga nazar tashlasak.

Huquqshunos olim B.Po‘latovning fikriga ko‘ra, prokuratura faoliyatining birlik tamoyili, avvalo, bu organlar oldiga qo‘yilgan vazifalarning birligi bilan belgilanadi. Qonun buzilishini aniqlash va bartaraf etish borasidagi yuqori turuvchi va quyi prokurorlarning vakolatlari bir xil [6].

Huquqshunos olim Z.Ibragimov ham ushbu fikrni quvvatlab, “prokuratura organlarining ish faoliyatidagi birlik tamoyili ularning yuqoridan pastgacha bir xil tartib qoidalar asosida yagona maqsadlarni ko‘zda tutgan holda faoliyat ko‘rsatishini, yagona vazifalarni amalga oshirishni hamda aynan bir xildagi qonunlarga rioya qilishini namoyon etadi” [7] deb ta’kidlagan.

Aniqroq qilib aytganda, barcha prokurorlar yagona vazifalarni amalga oshirishi va bir xil qonunlarga rioya qilishlari lozim. Bir viloyat prokururasi boshqa qonunga yana, boshqa viloyat prokururasi boshqa bir qonunga ko‘ra ish yuritishi yoki faoliyat olib borishi mumkin emas.

Huquqshunos olim O.Madaliev esa, “prokuror nazoratidagi birlik tamoyili prokuratura tizimiga kiruvchi barcha organlar faoliyatini yagona shakl, maqsad va umumiy vazifalaridan kelib chiqqan holda aks ettirilishi hamda aniqlangan qonun buzilish holatlariga nisbatan bir xilda prokuror ta’sir choralarini, prokuror nazorati hujjatlarini qo’llashda ifodalanishi bilan ajralib turadi” [8] degan fikrni ilgari surgan.

Bizga ma’lum bo‘lishicha, birlik prinsipi prokuratura maqsad va faoliyatining aynan bir xilligini anglatadi. Ya’ni prokuratura tizimiga kiruvchi barcha organlar faoliyati yagona shakl, maqsad va umumiy vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Masalan, Toshkent shahrida qonun buzilish holatlariga nisbatan prokuror ta’sir chora qo’lladi deylik, huddi shunday qonun buzilish holati Samarqand shahrida sodir etilsa va unga nisbatan boshqa ta’sir chorasi qo’llaniladigan bo‘lsa bu birlik prinsipiga zid bo‘lib qoladi. Bir xil qonun buzilish holatlari boshqa boshqa joylarda sodir etilsa ham bir xil ta’sir chorasi qo’llanilishi lozim. Ya’ni qonun buzilish holatlari aniqlash yoki bartaraf etishda yuqori va quyi turuvchi prokurorlar bir xil vakolatga egadirlar. Shunday qilib, barcha prokurorlar, tuman prokurorlaridan tortib to Bosh prokurorgacha o‘zining vakolati ta’siri doirasida davlat organlarining qonun buzulishiga olib kelgan aktlarini aniqlash va ta’sir chorasini ko‘rishi lozim hisoblanadi. Bunda ular yagona huquqiy vositalardan, ya’ni protest, taqdimnoma, ariza, ogohlantiruv xati va qaror kabi prokuror nazorat hujjatlariga tayanadilar.

Shuni ham aytib o‘tishimiz joizki, **birlik** prinsipiga ham boshqa prinsiplar kabi qonunda aniq ta’rif berilishi lozim deb hisoblaymiz. Sababi, qonunchilikka nazar tashlaydigan bo‘lsak, qonunning o‘zida qonuniylik, markazlashganlik, mustaqillik va oshkoraliq prinsiplariga aniq ta’riflar berib o‘tilgan, ammo birlik prinsipiga ta’rif berilmagan.

Prokuratura organlarining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lgan “markazlashganlik” prinsipi ham boshqa prinsiplardan o‘zining alohida qoidalari bilan ajralib turadi. Markazlashganlik prinsipi deganda quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga bo‘ysinshi hamda Bosh prokurorga bo‘ysinshi tushuniladi [9]. Bizga ma’lumki, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga ko‘ra Prokuratura organlarining tizimi berilgan. Unga ko‘ra, prokuratura tizimi yuqori turuvchi prokuraturadan quyi turuvchi prokuraturaga qarab tizimlashtirilgan. Mazkur prinsipda ham quyi turuvchi prokuratura yuqori turuvchi prokuraturaga bo‘ysunadi va biz bu prinsipni mazkur modda bilan uzviy bog‘liq deya olamiz.

Bizga ma’lumki, shahar, tuman va ixtisoslashtirilgan prokuraturaning prokurorlari Bosh prokuror tomonidan lavozimga tayinlanadi. Lavozimga tayinlash tartibiga qaramasdan barcha prokurorlar Bosh prokuror tomonidan lavozimidan chetlashtiriladi va ular unga bo‘ysunadilar va Bosh prokuror oldida hisobdor

bo‘ladilar. Fikrimizcha, yuqori turuvchi prokurorlar quyi turuvchi prokurorlar faoliyatini boshqaradilar va nazorat qiladilar. Bosh prokuror tomonidan prokuratura organlari sistemasini tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlari barcha prokuraturalar va ularning xodimlari tomonidan ijro etilishi majburiy hisoblanadi.

Boshqaruv organlari tizimi o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

- **Gorizontal;**
- **Vertikal.**

Prokuratura organlarida “markazlashganlik” prinsipiga ko‘ra faqatgina *vertikal* tizimi joriy etilgan, ya’ni quyi turuvchi prokuror yuqori turuvchi prokurorga bo‘ysunadi.

Ta’kidlash joizki, prokuratura organlari tizimida *rahbarlik prinsipi* ham prokurorlik faoliyatiga oid barcha masalalar faqat prokuror tomonidan yakka tartibda hal qilinishida ifodalanadi. Yuqori turuvchi prokurorlarning yakka tartibdagi buyruq, farmoyishlari quyi turuvchi prokurorlar uchun majburiydir. Yuqori turuvchi prokurorlar quyi turuvchi prokurorning qarorlari, farmoyishlarini yakka tartibda bekor qilishi mumkin.

Bizningcha, hamma prokuratura organlari bir xil maqsad va vazifalarni bajaradilar, nazoratni amalga oshirish tartibi, usuli yohud taktikasi ham bir xildir. “Markazlashganlik” prinsipiga yorqin misol qilib quyi turuvchi prokurorlar tomonidan yuqori turuvchi prokurorlarga hisobot berishini aytishimiz mumkin. “Prokuratura to‘g‘risida” gi Qonunning 5-moddasi 2-qismida ham markazlashganlik prinsipiga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, prokuratura organlari markazlashganlik prinsipi asosida quyi turuvchi prokuror yuqori turuvchi prokuror va Bosh prokuror oldida hisobdar hamda ularga bo‘ysunadilar deb belgilab qo‘yilgan.

Har bir demokratik davlatning huquq ustuvorligini ta’minalash va adolatli jamiyatni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadigan prinsip qonuniylik prinsipidir. Huquqiy davlat qurilishining asosiy sharti aynan qonuniylik prinsipiga amal qilishdir. Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar amalga oshirilayotgan harkatlarini albatta qonun asosida amalga oshiradilar. Nafaqat davlat organlari yoxud fuqarolar ham qonunga rioya qilishlari va shuningdek ularning harakatlari ham qonun bilan belgilangan tartibda bo‘lishlari lozim.

Qonuniylik prinsipi bu huquq subyektlari faoliyati uchun umumhuquqiy boshlang‘ich asos hisoblanadi [10]. Qonunning aniq va bir xilda amalga oshirilishini nazorat qiluvchi prokuratura organlari uchun mazkur prinsip ahamiyati jihatidan yuqori turuvchi prinsip hisoblanadi. Sababi, prokuratura organlarining asosiy maqsadi qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlash hisoblanadi.

Bosh qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiyamizning 15-moddasi oxirgi bandida davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar [11] deya belgilab qo‘yilgan.

O.Madaliyevning fikricha, qonuniylik prinsipi 4 maxsus o‘ziga xos taraflarini aytib o‘tgan, unga ko‘ra:

- mamlakatda rivojlangan qonunchilik tizimining boshqariladigan huquqiy munosabatlarga mos bo‘lishini;
- tegishli qonunlarga rioya etishni ta’minlovchi davlat-huquqiy infratuzilmalar;
- fuqarolar va mansabdor shaxslarning amaldagi qonunlardan xabardor bo‘lishi;
- huquqbazarlik, ularning vujudga kelish sabab va sharoitlarini o‘z vaqtida bartaraf etish [12].

Qonuniylik prinsipiga ko‘ra, prokurorlar davlatda qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar va qonundan chetga chiqish, uning buzilishi va o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yilishi kabi harakatlar sodir bo‘lishini oldini oladi. Shu bilan birga, prokurorlarning har bir huquqiy hujjati, (masalan, sud noqonuniy qaror chiqaradigan bo‘lsak, u qaror prokurorning protesti bilan bekor qilinishi va qonuniy qaror chiqarishi) ularning protsessual harakatlari qonunga asoslanishi, undan kelib chiqishi va qonunda belgilangan tartibda va shaklda bajarilishi lozim. Aynan mazkur prinsip prokurorlar tomonidan davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar, fuqarolar harakatini baxolashning asosiy mezoni hisoblanadi.

Shuni ham aytib o‘tishimiz lozimki, qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko‘ra yuz bergenidan qat’i nazar, jinoyat protsessida qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Prokuratura organlari o‘z faoliyatlarini faqatgina qonunga bo‘ysingan holda mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ularning faoliyatiga hech qaysi organ yoki tashkilot aralasha olmaydilar va bu qatiyan taqiqlanadi. Sababi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 145-moddasi va “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida mustaqillik prinsipi belgilab qo‘yilgan.

Mustaqillik prinsipini faoliyat nuqtai nazarida ikkiga bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi, ya’ni ichki va tashqi mustaqillikdir. Prokurorlarning ichki mustaqilligi deganda bizningcha, prokurorlar o‘z vazifalarida shaffoflik va adolatlilik, ish faoliyatini baholash, ishga qabul qilisha lavozimga ko‘tarish, ishdan bo‘shatish va ish

haqi masalalari bilan bog‘liq mustaqillikni o‘z ichiga oladi. Prokurorlarning tashqi mustaqilligi esa, prokuraturaning “uchchala hokimiyat” tizimiga kiruvchi barcha organlardan va boshqa subyektlardan mustaqil faoliyat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda, prokurorlarning siyosiy mustaqilligiga ham to‘xtalib o‘tishimiz lozim. “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasi 7-bandiga ko‘ra, prokuratura organi xodimlari siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi jamoat birlashmalari a’zosi bo‘la olmaydilar va faoliyat yurita olmaydilar. Va qo‘srimcha ravishda prokuratura organlari xodimlari prokuratura organlarida siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi jamoat birlashmalari tuzish ham taqiqlanadi.

Prokuratura organlari faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya etib o‘z faoliyatini olib boradi. Prokuratura organlari faoliyatiga har qanaqasiga aralashish huquqqa xilof hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo‘ladi. Chunki bunday aralashish prokuratura faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lgan mustaqillik prinsipiga zid hisoblanadi.

Davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va shuningdek, fuqarolarni davlat faoliyatiga jalb qilish kabi muhim ommilarni o‘z ichiga oluvchi oshkorlik prinsipi aynan davlat va hukumat organlari faoliyatining ochiqligini anglatadi.

O.Madalievning fikriga ko‘ra, oshkorlik prinsipi bu prokuratura organlari faoliyatining oshkorligi, uning fuqarolar, ommaviy axborot vositalar uchun o‘z faoliyatini ochiq amalga oshiradilar [13].

Mazkur prinsip amalga oshirilish jarayonida bevosita jamiyat prokuratura organlari faoliyatini nazorat qiladi. Jamiyat ya’ni aholi qonunchilik tizimining ahvoli yoxud o‘zlarining fuqarolik huquq va erkinliklari borasida prokuratura organlari faoliyatidan xabardor bo‘ladi. Fuqarolar yoki ommaviy axborot vositalari huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida prokuratura organlariga murojaat qilishidir. Bundan asosiy maqsad aynan oshkorlik prinsipi qonunchilikni mustahkamlashga yordam berishidir.

Oshkorlik prinsipining ham o‘z chegarlari bor deb hisoblaymiz. Sababi, davlat siri yoki kasb siri kabi oshkor qilib bo‘lmaydigan sirlar mavjud. Bunday sirlar oshkor etiladigan holatlar vujudga keladigan bo‘lsa javobgarlik holati vujudga keladi. Har bir davlat organi qonunda belgilangan tartibda oshkorlik prinsipiga amal qilishi fuqarolar va jamiyat uchun foydali deb hisoblaymiz.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplaridan tashqari, ichki tashkiliy prinsiplar sifatida e’tirof etiladigan prinsiplar ham mavjud bo‘lib, yuqorida ta’kidlaganimizdek ular *hududiylilik* va *predmetlilik* prinsiplari hisoblanadi. Mazkur

prinsipler nimaga kerak degan savol tug‘ilishi tabiiy holdir. Amaliyatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, aynan majburiyatlar taqsimlanishi hududiylik va predmetlilik prinsipiiga asosan amalga oshiriladi. Bizningcha, mazkur prinsiplarni asosiy prinsiplar qatoriga qo‘shtan holda Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari deb atashimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Endilikda, mazkur prinsiplar qanday prinsiplar ekanligiga nazar tashlasak. Huqushunos olim O.Madaliyevning nuqtayi nazaricha, hududiylik prinsipi - bu shunday tashkiliy tartibni bildiradiki, bunda barcha ishlar hajmi, hududiy birliklari o‘rtasida tezkor xodimlarga bo‘lib beriladi[14]. Ya’ni ishning hajmi bo‘yicha bir yoki bir nechta shahar va tumanlar prokururasiga taqsimlanadi.

Hududiylik prinsipi deganda prokurorning o‘z hududidagi ishlarni boshqa prokurorlar ko‘rmasligi. Masalan, metropolitenda jinoyat sodir bo‘ladigan bo‘lsa mazkur jinoyat bilan metropoliten qaysi tumanda joylashgan bo‘lsa o‘sha prokuratura emas, balki bu masala bilan Transport prokururasi shug‘ullanadi. Yana bir misol, Toshkent shahar Olmazor tumanida sodir etilgan huquqbuzarlikni Yunusobod tuman prokurori ushbu masala bilan shug‘ullana olmaydi.

Ma’lum bir hududga biriktirilgan bo‘lim prokurori yuqori turuvchi viloyat prokurorining kompetensiyasi asosida belgilangan nazorat doirasidagi qoidalar va Bosh prokurorning buyruq va yo‘riqnomalarining ijrosini nazorat qiladi. Bu maqsadda mazkur prokuror hudud qonunchiligini hudud statistikasini, ish rejalar, hisobot yoxud umumlashmalar va boshqalar bilan tanishib chiqadi. Tahlil asosida u boshqa tegishli shahar yoki tuman prokuraturalariga kamchiliklarni va ishlarni yaxshilash yuzasidan topshiriqlar yuboradi va hududiy prokuraturalar bilan doimiy aloqada bo‘ladi.

Shuningdek, shuni ham aytib o‘tishimiz lozimki, hududiylik prinsipi asosida ishlarni tashkillashtirishda prokurorning nazorati fuqarolarning murojaatlari, ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqishga, tegishli tumanlarda ishlar yuzasidan appellatsiya, kassatsiya va taftish tartibida kiritilishi lozim bo‘lgan protest kiritish masalasi va boshqa masalalar yuzasidan o‘z faoliyatini olib boradi.

Predmetlilik prinsipi deyilganda, prokurorlik nazorat predmeti tushunchasidan kelib chiqqan bo‘lib bunda prokurorlar o‘rtasidagi majburiyatlarni bo‘lishda: huquqiy tartibga solish doirasi, ya’ni prokuror tomonidan ma’lum bir toifadagi qoidalar va normativ aktlarning nazorat qilishiga qarab ixtisosliklar bo‘yicha taqsimlanishi tushuniladi [15].

Mazkur prinsipning asosiy maqsadi, barcha tuzilmalarni prokuratura oldida turgan muhim vazifalarini amalga oshirishga qaratilganligi hisoblanadi. Masalan, majburiyatlar taqsimlangandan keyin bo‘lim prokurori uning predmetiga tegishli

statistik va boshqa ma'lumotlarni umumlashtiradi, mazkur masalaga tegishli ish materiallarini tahlil qiladi yoki normativ aktlarni kamchiligi bo'yicha topshiriqlar tayyorlash bosqichida ishtirok etadi. Aynan bo'lim prokurorlari prokurorlik nazoratini tashkil etishda yoxud uning samaradorligini amalga oshirish yuzasidan o'z takliflarini kiritadi.

Predmetlilik prinsipida prokurorlar faqat o'z vakolatiga kiruvchi ishlar bo'yicha harakat qilishlari tushuniladi. Bilamizki, tuman prokururasida 6 ta xodim o'z faoliyatini olib boradi va ular ma'lum bir ishlarga biriktirilib qo'yilgan bo'ladi. Masalan, biri jinoyat ishlari bilan, yana biri fuqarolik yoki ma'muriy ishlar bilan shug'ullanadilar. Aynan mana shu narsa predmetlilik prinsipi deyiladi, sababi har bir prokuror o'ziga biriktirilgan ish bilan shug'ullansa albatta ishning samaradorligi oshadi.

Hududiylilik va predmetlilik prinsipining birlashib ketgan holatlari ham mavjud, ya'ni *hududiy-predmetlilik*. Mazkur prinsipda hududiy prokurorlarga qonun bilan belgilangan vakolatlarini amalga oshirilishi lozim bo'lgan predmet ham qo'shib beriladi. Bundan biz tushunishimiz mumkinki, ijtimoiy munosabatlarni asoslashga qaratilgan qonunlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan ixtisoslashgan prokuraturalar vujudga kelishiga olib keladi.

O'rganishlar natijasida ko'rinish turibdiki, aynan mazkur prinsiplar prokuratura organlari faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham mazkur prinsiplarni asosiy prinsiplar qatoriga qo'shib qo'yish lozim.

Hozirgi kunda **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi** mamlakatlarida prokuratura organlarining tashkil topish va rivojlanishi, tarixiy tendensiyalari bir-biriga juda o'xhash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Gruziya davlatlarining prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari bilan tanishib chiqamiz.

1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi **Qozog'iston Respublikasi Qonuning 3-moddasi** aynan prokuratura organlari tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari [16] deya nomlangan. Mazkur moddaga nazar tashlaydigan bo'lsak, Qozog'iston davlatining prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi prinsiplari bizning asosiy prinsiplarimiz bilan deyarli bir xil ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Sababi, mazkur modda 5-qismdan tashkil topganligi va uning birinchi va ikkinchi qismi markazlashganlik, uchinchi qismi qonuniylik prinsipi, to'rtinchi qismi mustaqillik va beshinchi qismi oshkorlik prinsipidir. Guvohi bo'lganimizdek, Qozog'istoning prokuratura oid qonunida birlik prinsipi mavjud emas.

Tojikiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunining 6-moodasi prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatining prinsiplari [17] deya nomlangan. Ushbu moddaga binoan biz Tojikiston Respublikasining prokuratura organlarining asosiy prinsiplari toifasiga markazlashganlik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, qonuniylik va oshkoraliq prinsiplari kiradi.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qirg‘iz Respublikasi Qonunining 4-moddasida prokuratura faoliyatining tamoyillari belgilab qo‘yilgan. Prokuratura faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1) qonuniylik;
- 2) oshkoraliq;
- 3) prokurorning mustaqilligi va uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- 4) prokuror talablarini bajarish majburiyati;
- 5) bir kishilik boshqaruv va quyi prokurorlarning yuqori turuvchiga bo‘ysunishi [18].

Gruziya davlati “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida prokuratura faoliyatining tamoyillari belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra ular quyidagi prinsiplardan tashkil topgan:

- a) qonuniylik va adolat;
- b) xolislik;
- v) professionallik va malaka;
- d) barcha quyi bo‘g‘in prokurorlari va boshqa prokuratura xodimlarining birligi va markazlashuvi, Bosh prokurorga bo‘ysunishi;
- e) shaxsning huquq va erkinliklarini, shuningdek, sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligini himoya qilish;
- f) siyosiy betaraflik [19].

Yuqorida to‘rt davlatning “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunining tegishli moddalarida ularning prinsiplari bilan tanishib chiqdik. Mazkur davlatlarning prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari bilan o‘xshash jihatlari ya’ni deyarli barcha davlatlarda asosan qonuniylik, markazlashganlik, mustaqillik va oshkoraliq kabi prinsiplari mavjud.

XULOSA

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplarini chuqr o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kwlish mumkin:

birinchidan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida birlik prinsipiga ta’rif berilmagan. Mazkur prinsipga ham boshqa prinsiplar qatori ta’rif berilib ketilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sababi, qonun bilan tanishayotgan o‘ganuvchi boshqa moddalar bilan tanishganda ma’lum bir xulosaga kelishi memkin, ammo birlik prinsipi bilan tanishgan o‘ganuvchi u qanday prinsip ekanligi haqida ma’lum bir xulosaga kelolmaydi.

Bizningcha, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunnning 5-moddasiga **birlik** prinsipining ta’rifini kiritish lozim. Yokida Qиргизистон давлати тажрибасидан фойдалangan holda prinsiplarga har biriga alohida modda ishlab chiqilishi yoxud 5-moddaga prim moddalar qo‘shilishi kerak deb hisoblaymiz.

ikkinchidan, oshkorlik prinsipi hisoblanadi. O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qonun bo‘yicha prokuratura organlari o‘z faoliyatini qonunda belgilangan tartibda oshkora amalga oshiradi deyilgan. Ammo prokuratura organlari faoliyati haqida hech qayerda ma’lumot ololmaymiz, ya’ni ular qancha ish ko‘rdi, qancha fuqarolarning shikoyatlarini o‘rganib chiqdi va ular ijobjiy hal qilindimi yoki yo‘qmi kabi ma’lumotlar hech qayerda mavjud emas. Bu bilan prokuratura organlari ommaviy-axborot vositalarida mazkur muammolarni e’lon qilish tarafdori emmasmiz, balki prokuratura organlarining maxsus saytida bir oylik yoki bir yillik ko‘rilgan ishlar bo‘yicha statistika sifatida qancha ish hal qilingan, qancha ish ko‘rmasdan qoldirilgan yoxud qancha ish kelib tushganligi kabi ma’lumotlar berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Aynan mana shu yo‘l orqali aholi orasida prokuratura organlariga nisbatan ishonchni yanada kuchaytirish mumkin.

uchinchidan, ichki tashkiliy prinsiplar hisoblangan hududiylilik va predmetlilik prinsiplarini ham asosiy prinsiplar qatoriga qo‘shish lozim. Sababi, amaliyotda muhim hisoblangan ushbu prinsiplarni asosiy qonunga kiritib, albatta ularga ta’rif berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

to‘rtinchidan, prokuratura organlari o‘z faoliyatida prinsiplarga (ma’lum vaziyatlarda prinsiplarga tayanmagan holda o‘z faoliyatini olib boradigan holatlar mavjud. Masalan, oshkorlik prinsipi) tayangan holda o‘z faoliyatini olib borishi lozim. (Tojikiston davlati tajribasiga ko‘ra prinsiplarning moddalari asosida alohida alohida moddalar ishlab chiqish)

beshinchidan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga o‘zgartirish kiritish lozim. Sababi, mazkur moddada tafovut mavjud, ya’ni birlik prinsipiga tarif berilmagan. (*Qиргизистон ва Грузия* давлат тажрибasi asosida)

oltinchidan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga prim modda sifatida hududiylilik va predmetlilik prinsiplarini kiritish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Дворецкий И.Х. Латинско-русский словарь. - М. 1998, 621 – 6.
- 2) Xalq so'zi-2001. -30-avgust.
- 3) Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik, TDYU. Toshkent- 2019. 25-bet
- 4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
- 5) Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik, TDYU. Toshkent- 2019. 27-bet
- 6) Пўлатов Б.Х. “Конунлар ижроси устидан прокурор назорати”. – Т. 2006. – Б. 42.
- 7) Ибрагимов З.С. “Мустақиллик ва Ўзбекистон Республикаси прокуратураси”. – Т. 2011. – Б. 174.
- 8) Мадалиев О.М. “Prokuror nazorati”. – Т. 2012. – Б. 85.
- 9) Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik, TDYU. Toshkent- 2019. 27-bet
- 10) Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik, TDYU. Toshkent- 2019. 28-bet
- 11) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
- 12) Madaliyev.O.M. Prokror nazorati. Darslik. Maxsus qism,-T:Ilm Ziyo, 2012.
- 13) Madaliyev.O.M. Prokror nazorati. Darslik. Maxsus qism,-T:Ilm Ziyo,2012.
- 14) Madaliyev.O.M. Prokror nazorati. Darslik. Maxsus qism,-T:Ilm Ziyo,2012.
- 15) Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik, TDYU. Toshkent- 2019.
- 16) Конституционный закон Республики Казахстан об этом прокуратуре. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z2300000022>.
- 17) Конституционный закон Республики Таджикистан "Об органах прокуратуры Республики Таджикистан". <https://prokuratura.tj/ru/legislation/the-constitutional-law-on-the-prosecutors-office-of-tajikistan.html>.
- 18) КОНСТИТУЦИОННЫЙ ЗАКОН КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКИ от 10 сентября 2021 года № 114. О прокуратуре Кыргызской Республики. <https://cbd.minjust.gov.kg/112293/edition/1380/ru>.
- 19) <https://www.matsne.gov.ge/ru/document/view/4382740?publication=11>